


## RAQAMLAR


- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiylajmi **2,8 trln. so'm**, o'sish sur'ati **101,2 %**
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati **101,8 %** ni tashkil qildi.
- shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari – **95,9 %**
- chorvachilik mahsulotlari – **102,1 %**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2019 yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiylajmi 2789,1 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 101,2 %ni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 2603,5 mlrd.so'mni (101,1 %), o'rmon xo'jaligi – 182,8 mlrd.so'mni (102,6 %), baliq xo'jaligi – 2,8 mlrd.so'mni (105,2 %) tashkil qildi

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



## **Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (foizda)**



Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Urgut tumanining ulushi 12,3 %ni tashkil etdi va tumanlar bo'yicha yetakchilik qilmoqda, Kattaqo'rg'on va Tayloq tumanlari mos ravishda 9,5 % va 9,5 % ko'rsatkich bilan keyingi o'rirlarni egalladi. Eng kam ulush Kattaqo'rg'on shahri (0,8 %), Samarqand shahri (1,1 %) va Narpay (4,1 %) tumanida qayd etildi.

### **Qishloq xo'jaligi mahsulotlari**


2018 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2018 yilning mos davriga nisbatan 101,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 95,9 %ni, chorvachilik mahsulotlari – 102,1 % ni tashkil qildi.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi (foizda)



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 87,2 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 7,7 % – fermer xo'jaliklariga, 5,1 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida (foizda)





Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

## Dehqonchilik

2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 102,9 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 95,9 %ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi

4,0 %ni tashkil qildi.




### 2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlari

|             | Barcha<br>toifadagi<br>xo'jaliklar | shu jumladan           |                          |  |                          |   |                          |       |                          |
|-------------|------------------------------------|------------------------|--------------------------|--|--------------------------|---|--------------------------|-------|--------------------------|
|             |                                    | fermer<br>xo'jaliklari |                          | dehqon<br>(shaxsiy<br>yordamchi)<br>xo'jaliklari |                          | qishloq xo'jaligi<br>faoliyatini<br>amalga oshiruvchi<br>tashkilotlar |                          |       |                          |
|             |                                    | tonna                  | o'sish<br>sur'ati<br>%da | tonna  | o'sish<br>sur'ati<br>%da | tonna   | o'sish<br>sur'ati<br>%da | tonna | o'sish<br>sur'ati<br>%da |
| Sabzavotlar |                                    | 2757,0                 | 84,3                     | 942,0  | 106,8                    | 1427,0  | 100,9                    | 386,0 | 39,8                     |

**Hosilni yig'ib olish.** 2019 yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda 2,8 ming tonna (84,3 %) sabzavotlar, yig'ib olindi.

## Asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi (foizda)



Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida sabzavotlarning 51,8 %, tomona ishlab chiqarildi.

### 2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

#### Chorvachilik




2019 yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2495,1 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,1 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 96,0 %ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirkiz vaznda 60,1 ming tonna go'sht (2018 yilning yanvar-martiga nisbatan 3,2 %ga ko'p), 264,2 ming tonna sut (0,3 %ga), 245,2 mln.dona tuxum (1,1 %ga), ishlab chiqarildi.

## 2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlari

|                               | Barcha<br>toifadagi<br>xo'jaliklar |                        | shu jumladan:          |                        |  |                        |   |                        |
|-------------------------------|------------------------------------|------------------------|------------------------|------------------------|--|------------------------|---|------------------------|
|                               |                                    |                        | fermer<br>xo'jaliklari |                        | dehqon<br>(shaxsiy<br>yordamchi)<br>xo'jaliklari |                        | qishloq xo'jaligi<br>faoliyatini<br>amalga oshiruvchi<br>tashkilotlar |                        |
|                               | miqdori                            | o'sish<br>sur'ati<br>% | miqdori                | o'sish<br>sur'ati<br>% | miqdori  | o'sish<br>sur'ati<br>% | miqdori   | o'sish<br>sur'ati<br>% |
| Go'sht tirk vaznda,<br>ming t | 60,1                               | 103,2                  | 2,9                    | 127,4                  | 54,5   | 103,2                  | 2,7   | 86,7                   |
| Sut,<br>ming t                | 264,2                              | 100,3                  | 9,8                    | 107,0                  | 254,0  | 100,1                  | 0,3   | 82,6                   |
| Tuxum,<br>mln. dona.          | 245,3                              | 101,1                  | 33,2                   | 104,2                  | 88,3   | 101,2                  | 123,8   | 100,2                  |
| Qorako'l,<br>ming dona.       | 10,3                               | 77,6                   | 1,2                    | 102,4                  | 7,8  | 71,8                   | 1,4   | 104,3                  |


### Asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi (foizda)




Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'satkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirk vaznda go'shtning umumiyoj hajmidan 90,7 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 96,2 %, tuxumning 36,0 %, qorako'l terining 75,5 % ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

**Go'sht (ming t)**




**Sut (ming t)**



**Tuxum (mln. dona)**



**Овланган балиқ (tonna)**



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2019 yilning 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1540,9 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 651,9 ming boshga, qo'y va echkilar – 2 369,1 ming boshga, parrandalar – 11736,6 ming boshga yetdi.




2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 67,2 ming boshga (4,6 %ga), shu jumladan sigirlar – 23,9 ming boshga (3,8 %ga), qo'y va echkilar – 87,8 ming boshga (3,8 %ga), parrandalar – 624,7 ming boshga (5,6 %ga) ko'paydi.

### **2019 yilning 1 aprel holatiga xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni**

|                     | <i>Barcha<br/>toifadagi<br/>xo'jaliklar</i> | <i>shu jumladan:</i>           |                                 |                       |                                 |  |                                 |   |                                 |
|---------------------|---|--------------------------------|---------------------------------|-----------------------|---------------------------------|--|---------------------------------|---|---------------------------------|
|                     |   | <i>fermer<br/>xo'jaliklari</i> |                                 |                       |                                 | <i>dehqon<br/>(shaxsiy<br/>yordamchi)<br/>xo'jaliklari</i> |                                 | <i>qishloq xo'jaligi<br/>faoliyatini<br/>amalga oshiruvchi<br/>tashkilotlar</i> |                                 |
|                     |   | <i>ming.<br/>bosh</i>          | <i>o'sish<br/>sur'ati<br/>%</i> | <i>ming.<br/>bosh</i> | <i>o'sish<br/>sur'ati<br/>%</i> | <i>ming.<br/>bosh</i>                                      | <i>o'sish<br/>sur'ati<br/>%</i> | <i>ming.<br/>bosh</i>   | <i>o'sish<br/>sur'ati<br/>%</i> |
| <b>Yirik shoxli</b> |   |                                |                                 |                       |                                 |  |                                 |   |                                 |
| qoramollar          | 1540,9                                      | 104,6                          | 71,2                            | 106,6                 | 1460,5                          | 104,5  | 9,2                             | 103,1   |                                 |
| <b>shu jumladan</b> |   |                                |                                 |                       |                                 |  |                                 |   |                                 |
| sigirlar            | 651,9                                       | 103,8                          | 26,7                            | 103,1                 | 624,1                           | 103,8  | 1,1                             | 100,0   |                                 |
| Qo'y va echkilar    | 2369,1                                      | 103,8                          | 129,6                           | 101,6                 | 2 143,5                         | 105,2  | 96,0                            | 82,3  |                                 |
| Parrandalar         | 11736,6                                     | 105,6                          | 3041,3                          | 106,8                 | 5043,8                          | 109,1  | 3651,5                          | 100,4   |                                 |

2019 yining 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,6 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 94,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 5,5 % fermer xo'jaliklariga, 90,5 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 4,1 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 25,9 % fermer xo'jaliklariga, 43,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 31,1 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi

## Chorva mollari va parrandalar bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha ulushi (foizda)



Fermer xo'jaliklari



Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

### 2019 yilning 1 aprel holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parandalar bosh soni

**Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)**

|                   |       |
|-------------------|-------|
| Urgut             | 180,1 |
| Pastdarg'om       | 179,1 |
| Kattaqo'rg'on     | 122,7 |
| Ishtixon          | 123,9 |
| Bulung'ur         | 106,4 |
| Jomboy            | 104,1 |
| Payariq           | 102,9 |
| Paxtachi          | 100,7 |
| Tayloq            | 100,6 |
| Qo'shrabot        | 99,4  |
| Narpay            | 95,9  |
| Oqdaryo           | 73,9  |
| Nurobod           | 66,2  |
| Samarqand         | 47,4  |
| Kattaqo'rg'on sh. | 31,3  |
| Samarqand sh.     | 6,1   |




**shundan, sigirlar (ming bosh)**


|                   |      |
|-------------------|------|
| Urgut             | 78,8 |
| Pastdarg'om       | 72,8 |
| Kattaqo'rg'on     | 55,7 |
| Ishtixon          | 55,3 |
| Payariq           | 52,4 |
| Bulung'ur         | 50,4 |
| Tayloq            | 44,6 |
| Jomboy            | 42,7 |
| Narpay            | 39,4 |
| Qo'shrabot        | 37,3 |
| Paxtachi          | 36,2 |
| Nurobod           | 30,0 |
| Oqdaryo           | 27,3 |
| Samarqand         | 17,7 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 7,8  |
| Samarqand sh.     | 3,5  |



### Qo'y va echkilar (ming bosh)



### Parrandalar (ming bosh)



Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

- 71-230-85-30
- 71-230-85-31